

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH

Masharipova Shahlo Adambaevna

Toshkent Menejment va iqtisodiyot instituti
dotsenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda yashil moliyani rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, xalqaro tajribalarni o'rganish va mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan. Yashil moliya – bu ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi bo'lib, u yashil kreditlar, obligatsiyalar va barqaror investitsiyalar kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Jahonda yashil moliyalashtirishning iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'siri isbotlangan bo'lib, O'zbekistonda ushbu tizimdan foydalanish yo'llarini aniqlash va qo'llash amaliyotini kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud.

Tadqiqot davomida O'zbekistonning yashil moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha amaldagi holati tahlil qilinib, sohadagi asosiy muammolar o'rganilgan. Shu bilan birga, Qozog'iston, Indoneziya va Yevropa Ittifoqi tajribalari tahlil qilinib, ularda qo'llanilayotgan modellarni O'zbekiston amaliyotiga joriy etish imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalari asosida yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish, yashil kreditlar uchun moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish va xususiy sektor ishtirokini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yashil moliyaviy tizimni rivojlantirishda ilmiy va amaliy asos yaratib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yashil moliya, ekologik investitsiyalar, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, barqaror iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация

Данное исследование направлено на оценку возможностей развития зелёного финансирования в Узбекистане, изучение международного опыта и выявление существующих проблем. Зелёное финансирование представляет собой механизм финансирования экологически устойчивых проектов, включающий такие инструменты, как зелёные кредиты, облигации и устойчивые инвестиции. Положительное влияние зелёного финансирования на экономическую стабильность доказано во всем мире, что подчёркивает необходимость проведения научных исследований по изучению и расширению его применения в Узбекистане.

В ходе исследования был проведён анализ текущего состояния системы зелёного финансирования Узбекистана и выявлены ключевые проблемы в данной сфере. Кроме того, изучен опыт Казахстана, Индонезии и Европейского Союза, а также определены возможности адаптации применяемых ими моделей в финансовую систему Узбекистана.

На основе полученных результатов разработаны рекомендации по формированию рынка зелёных облигаций, созданию механизмов финансового стимулирования для зелёных кредитов и увеличению участия частного сектора. Результаты исследования создают научную и практическую основу для развития системы зелёного финансирования, способствуя обеспечению экономической стабильности.

Ключевые слова: зелёное финансирование, экологические инвестиции, зелёные кредиты, зелёные облигации, устойчивое развитие, финансовая стабильность.

Abstract

This study aims to assess the opportunities for developing green finance in Uzbekistan, analyze international experiences, and identify existing challenges. Green finance is a mechanism for financing environmentally sustainable projects, encompassing tools such as green loans, bonds, and sustainable investments. The positive impact of green financing on economic stability has been proven worldwide, highlighting the need for scientific research to explore its implementation and expansion in Uzbekistan.

The study examines the current state of Uzbekistan's green finance system and identifies key challenges in the sector. Additionally, the experiences of Kazakhstan, Indonesia, and the European Union have been analyzed to determine the feasibility of integrating their models into Uzbekistan's financial system.

Based on the research findings, recommendations have been developed for establishing a green bond market, creating financial incentive mechanisms for green loans, and increasing private sector participation. The results of this study provide both a scientific and practical foundation for developing a green financial system, contributing to economic sustainability.

Keywords: green finance, ecological investments, green loans, green bonds, sustainable economy, financial stability

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik muammolarni kamaytirish maqsadida yashil moliya yo'nalishida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Dunyo bo'ylab yashil moliya ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish vositasi sifatida keng qo'llanilib, u yashil kreditlar, obligatsiyalar va barqaror investitsiyalar orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda [1]. Ushbu tendensiyalar iqtisodiy barqarorlik bilan birga ekologik xavflarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishga yordam beradi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar yashil iqtisodiyot va moliyaviy tizimni rivojlantirishga yuqori ahamiyat qaratilayotganligini asoslaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori¹ bu borada muhim hujjatlardan biri bo‘lib, unda O‘zbekistonda yashil moliyani joriy etish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Mazkur hujjatlar asosida O‘zbekiston hukumati yashil obligatsiyalar chiqarish, ekologik kredit dasturlarini kengaytirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirish kabi qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Biroq, moliyaviy instrumentlarning rivojlanmaganligi, huquqiy tizimning noaniqligi va xususiy sektor ishtirokining sustligi yashil moliyaning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda [4]. Ushbu xolatlarni inobatga olganda O‘zbekistonda yashil moliyaning joriy holatini baholash, xalqaro tajribalarni o‘rganish va yashil kreditlash hamda barqaror investitsiyalarni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish muhim masalalardan biridir.

Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ladiki, Markaziy Osiyodagi yashil moliya siyosatining rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlar kengayib, O‘zbekistonda ham bu borada maqsadli strategik yo‘nalishlar belgilab berilmoqda. Ayniqsa 2021-yildan keyingi quyidagi yo‘nalishlar ahamiyatga molik xisoblanadi:

- Hukumat va moliyaviy institutlar uchun yashil moliya siyosatini shakllantirishda ilmiy asos yaratish [1].
- Xususiy sektorni ekologik barqaror investitsiyalarga jalb etishning samarali usullarini aniqlash [6].
- O‘zbekiston tajribasini Qozog‘iston, Indoneziya va boshqa davlatlar bilan taqqoslash orqali yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish[4].

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali ushbu tadqiqot mamlakatda yashil moliyani rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslab, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish hamda samarali strategiyalarni shakllantirishga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil moliya zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etayotgan tushuncha bo‘lib, u ekologik barqaror loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Yashil moliyaning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar va O‘zbekistonda ushbu sohaning rivojlanish istiqbollari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

1. Yashil moliyaning konseptual asoslarini yaratish. Yashil moliya ekologik jihatdan barqaror loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, qayta tiklanadigan energiya, ekologik toza infratuzilma hamda yashil texnologiyalarni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq [1]. Ushbu moliyaviy mexanizmlar yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va barqaror investitsiyalar orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil kreditlar ekologik loyihalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, an’anaviy kreditlarga qaraganda uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi [2]. Shu bilan birga, moliyaviy tizimning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6303230>

moslashuvchanligi va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi yashil kreditlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [5].

2. Xalqaro tajribalardan maqsadga muvofiq namunalar olish asosida mahalliy moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish. Dunyo boʻylab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar yashil moliyani qoʻllab-quvvatlash uchun turli xil yondashuvlarni mavjud, jumladan:

- Qozogʻiston tajribasi: mamlakat doiraviy iqtisodiyot tamoyillarini qoʻllab, yashil kredit va obligatsiyalar bozorini joriy qilgan. Davlat ekologik loyihalarni ragʻbatlantirish uchun moliyaviy imtiyozlar taqdim etish tizimi yaratilgan [3].

- Indoneziya tajribasi: davlat yashil moliyani ragʻbatlantirish uchun soliq imtiyozlari va uzoq muddatli moliyaviy yordam dasturlarini ishlab chiqqan. Bu esa yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda [4].

- Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari: Yevropa Ittifoqida yashil obligatsiyalar bozori keng rivojlangan boʻlib, ekologik loyihalarga uzoq muddatli moliyaviy resurslar yoʻnaltirilmoqda [1].

Oʻzbekiston ushbu tajribalardan foydalanib, yashil kreditlar va obligatsiyalar bozorini shakllantirishi, davlat tomonidan xususiy sektor uchun moliyaviy ragʻbatlantirish choralarini ishlab chiqishda foydalansa boʻladi.

Oʻzbekistonda yashil moliya hali rivojlanish bosqichida boʻlib, soʻnggi yillarda ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishga oid dastlabki qadamlar qoʻyilmoqda. Davlat tomonidan qayta tiklanadigan energiya va ekologik loyihalarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha dasturlar mavjud boʻlsa-da, yashil moliya vositalarining iqtisodiy tizimga toʻliq integratsiyalashuvi hali ham sust kechmoqda [9]. Shu bilan birga, Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish borasida yetakchi mamlakatlardan biriga aylanib boʻyotganligini xalqaro tashkilotlar eʼtirof etmoqda. Yashil kreditlarning joriy etilishi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali mamlakat ekologik investitsiyalarni kengaytirishga harakat qilmoqda [8]. Shu bilan, Oʻzbekistonda mazkur yoʻnalishlarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish dolzarbligicha qolmoqda. Moliyaviy instrumentlarning yetarlicha rivojlanmaganligi va uzoq muddatli iqtisodiy foydaning toʻliq anglanmasligi bu jarayonni rivojlanishini sekinlashtirish xolatlari maqjud [2]. Shu sababli, xalqaro tajribalardan foydalanish va xususiy sektorni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [1].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot Oʻzbekistonda yashil moliyani rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, xalqaro tajribalarni oʻrganish va mavjud qiyinchiliklarni tahlil qilish uchun kombinatsiyalangan tadqiqot usullaridan foydalanadi. Tadqiqotda induktiv va diduktiv usullar va SWOT taxlik yondashuvlaridan foydalanish asosida yashil moliyani rivojlantirishning turli instrumenlaridan foydalanishning oʻziga xos tomonlari aniqlanadi.

Tahliliy usullaridan foydalanish asosida yashil moliyaning xalqaro tajribalari va mintaqaviy rivojlanish modellarini oʻrganish, shuningdek, statistik tahlil usuli orqali yashil moliyaviy investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi koʻrib chiqildi [2].

Tadqiqot davomida taqqoslash usulidan foydalanilib, Oʻzbekistonning yashil moliya boʻyicha siyosiy yondashuvlari Qozogʻiston, Indoneziya va boshqa ilgʻor tajribaga ega mamlakatlar bilan solishtirildi [4]. Bu esa mamlakatda yashil moliyani joriy etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Tadqiqot Oʻzbekistonning yashil moliya tizimini oʻrganishga qaratilgan boʻlsa-da, taqqoslash maqsadida Qozogʻiston, Indoneziya va Yevropa davlatlarining ushbu sohadagi yutuqlari ham tahlil qilindi [3].

Tahlil jarayonida deskriptiv tahlil usulidan foydalanilib, Oʻzbekistonda yashil moliya vositalarining joriy holati va rivojlanish darajasi aniqlandi [9]. Trend tahlili orqali yashil kreditlar va ekologik investitsiyalar hajmi va ularning iqtisodiyotga taʼsiri baholandi [2]. SWOT tahlili esa Oʻzbekistonda yashil moliyani rivojlantirish boʻyicha kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlashga yordam berdi [5].

Mazkur metodologiya asosida olingan natijalar Oʻzbekistonda yashil moliyani rivojlantirish boʻyicha aniq takliflar ishlab chiqish va ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Mamlakatda qayta tiklanadigan energiya, ekologik toza infratuzilma va yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar mavjud. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar va davlat tashabbuslari orqali yashil kreditlar va investitsiyalarni jalb qilishga harakat qilinmoqda [9].

Oʻzbekistonda yashil moliya sohasi quyidagi yoʻnalishlarda rivojlanmoqda:

- Oʻzbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish boʻyicha xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlar tomonidan bir qator loyihalar qoʻllab-quvvatlanmoqda. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan quyosh va shamol energetikasi loyihalarini moliyalashtirish boʻyicha investitsiyalar jalb qilinmoqda. Shu bilan birga, ichki moliyaviy tizim ham ushbu yoʻnalishda rivojlanmoqda, lekin hali toʻliq shakllangan emas. Ichki tijorat banklari va investitsion institutlarning bu boradagi faolligini oshirish, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar orqali yashil energiya loyihalariga mahalliy kapitalni jalb etish istiqbolli yoʻnalishlardan biri hisoblanadi [8].

- Tijorat banklari tomonidan ekologik qishloq xoʻjaligi va yashil iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlash maqsadida turli kredit mahsulotlari taklif etilmoqda. Jumladan, qishloq xoʻjaligida suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish, organik dehqonchilik va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish boʻyicha kredit liniyalari mavjud. Biroq, ushbu kreditlarning foiz stavkalari nisbatan yuqori boʻlib, fermerlar va tadbirkorlar uchun moliyaviy yuklamani oshiradi. Ushbu muammoni yumshatish uchun davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi sheriklikni kengaytirish, xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokini oshirish va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish zarur.

Shuningdek, ekologik loyihalarning uzoq muddatli rentabelligini hisobga olgan holda, moliyaviy barqarorlikni oshirishga yoʻnaltirilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim [2].

- Xalqaro tajribaga koʻra, yashil obligatsiyalar ekologik barqaror loyihalar uchun uzoq muddatli va maqbul moliyaviy manba sifatida keng qoʻllanilmoqda. Masalan, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida yashil obligatsiyalar bozori barqaror rivojlanib, energiya samaradorligi, atrof-muhit muhofazasi va uglerod chiqindilarini kamaytirish kabi loyihalarni moliyalashtirish uchun keng foydalanilmoqda. Oʻzbekistonda esa bu amaliyot hali toʻliq shakllanmagan boʻlsa-da, mamlakatning yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi doirasida ushbu bozorni rivojlantirish boʻyicha istiqbolli imkoniyatlar mavjud. Maxsus tartibga soluvchi meʼyoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqish, xalqaro investorlarga ochiqlikni oshirish hamda mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish yashil obligatsiyalar bozorining rivojlanishiga turtki beradi. [1].

- Yashil moliyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moliyaviy barqarorlik va huquqiy muhitning yetarlicha shakllangan boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekistonda ushbu soha boʻyicha muayyan qadamlar tashlangan boʻlsa-da, maxsus qonunlar va tartibga soluvchi mexanizmlarni yanada takomillashtirish lozim. Xususan, yashil moliyani ragʻbatlantiruvchi soliq imtiyozlarini joriy etish, ekologik standartlarni kuchaytirish va yashil investitsiyalarni himoya qiluvchi huquqiy kafolatlarni mustahkamlash orqali mazkur sektorning rivojlanishi jadallashtiriladi. Bundan tashqari, xalqaro tajribani oʻrganish va uni milliy qonunchilikka moslashtirish orqali yashil moliyaviy vositalarning samaradorligi oshiriladi. [5].

Oʻzbekistonda yashil moliyaning rivojlanishi uchun muhim zamin yaratilgan boʻlib, xalqaro tajriba va mahalliy ehtiyojlarni inobatga olgan holda ushbu sohani rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Ichki moliyaviy institutlar va investorlar ishtirokini kengaytirish, huquqiy bazani takomillashtirish, imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish hamda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali mamlakat yashil iqtisodiyot sari yanada jadal rivojlanadi.

Xalqaro tajribalar shuni koʻrsatadiki, yashil moliyani rivojlantirishda quyidagi strategiyalar samarali boʻlishi mumkin:

- Qozogʻiston tajribasi: Qozogʻiston yashil iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlardan biri boʻlib, mamlakatda aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yashil kreditlar va obligatsiyalar bozorining rivojlanishi davlatning iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni taʼminlash strategiyasining ajralmas qismi sifatida koʻrilmoqda. Hukumat ekologik loyihalarni ragʻbatlantirish maqsadida moliyaviy imtiyozlar, jumladan, soliq yengilliklari va imtiyozli kredit dasturlarini joriy etgan. Shu bilan birga, Qozogʻiston Milliy Banki va tijorat banklari yashil moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kredit liniyalarini taklif qilmoqda. Ushbu mexanizmlar mamlakatda uglerod neytralligi va ekologik barqarorlikni taʼminlash jarayonini tezlashtirishga xizmat qilmoqda [3].

- Indoneziya tajribasi: Indoneziya yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribaga ega. Mamlakat hukumati yashil moliyani rag‘batlantirish uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlarni belgilab bergan bo‘lib, ulardan biri yashil loyihalar uchun soliq imtiyozlarini joriy etishdir. Soliq yengilliklari ekologik innovatsiyalarni joriy qilayotgan kompaniyalar uchun investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Indoneziya uzoq muddatli moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqib, yashil infratuzilma va ekologik muhofaza loyihalariga sarmoya yo‘naltirishni rag‘batlantirmoqda. Ushbu yondashuv Indoneziyaning atrof-muhit barqarorligini ta‘minlash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha milliy strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. [4].

- G‘arbiy Yevropa mamlakatlari: Yevropa Ittifoqi davlatlari yashil moliya bozorining eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanib, yashil obligatsiyalar ushbu mintaqada ekologik loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida faol qo‘llanilmoqda. Yevropa moliya institutlari va davlat tuzilmalari uzoq muddatli yashil investitsiyalarni jalb qilish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqqan. Masalan, Yevropa Markaziy Banki (ECB) yashil obligatsiyalar bozorini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy mexanizmlar joriy etgan. Ushbu obligatsiyalar tabiiy resurslarni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror infratuzilmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining yashil moliyani qo‘llab-quvvatlash strategiyasi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun kapital bozorlarining ekologik loyihalarga yo‘naltirilishini ta‘minlashga qaratilgan [1].

O‘zbekiston ushbu tajribalardan foydalanib, yashil kreditlar va obligatsiyalar bozorini shakllantirishi, davlat tomonidan xususiy sektor uchun moliyaviy rag‘batlantirish choralarini ishlab chiqishi mumkin:

- Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyani rivojlantirish uchun quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

- Davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirish va tartibga solish – soliq imtiyozlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali yashil loyihalarga sarmoyalarni jalb qilish mexanizmlarini yaratish;

- Kapital bozorlarini rivojlantirish – yashil obligatsiyalar bozori va ekologik investitsiyalar uchun maxsus moliyaviy vositalarni shakllantirish;

- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik – xalqaro tajriba va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali yashil iqtisodiyot loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu omillar O‘zbekistonda yashil moliyaning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ekologik omillar bilan uyg‘unlashtirishga zamin yaratadi.[5].

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari aossida 1-jadvalda O‘zbekistonda Yashil moliyaning holati bo‘yicha SWOT tahlil natijalari keltirilgan.

1-jadval.

SWOT Tahlili: O‘zbekistonda Yashil moliyaning holati¹

Tahlil mezonlari	Tavsif
Kuchli tomonlar (Strengths)	<ul style="list-style-type: none"> • Hukumat tomonidan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqilmoqda [9]. • Qayta tiklanadigan energiya loyihalariga qiziqish ortib bormoqda [8]. • Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik imkoniyatlari mavjud [2].
Zaif tomonlar (Weaknesses)	<ul style="list-style-type: none"> • Xususiy sektorning sust ishtiroki [4]. • Yashil kreditlash va obligatsiyalar bozorining rivojlanmagani [1]. • Huquqiy va moliyaviy mexanizmlarning yetishmovchiligi [5].
Imkoniyatlar (Opportunities)	<ul style="list-style-type: none"> • Jahon banki va IMF tomonidan moliyaviy yordam dasturlari mavjud [3]. • Qozog‘iston va Indoneziya tajribalaridan foydalanib, yashil obligatsiyalarni joriy qilish mumkin [4]. • Xususiy sektorni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va davlat kafolatlarini joriy qilish [1].
Tahdidlar (Threats)	<ul style="list-style-type: none"> • Yashil loyihalar uchun uzoq muddatli moliyaviy manbalarning cheklanganligi [2]. • Davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikning sustligi [8]. • Yashil moliya bo‘yicha xabardorlikning pastligi [5].

SWOT tahlili natijalari bo‘yicha tavsiyalar:

- Yashil obligatsiyalar bozorini yaratish – davlat tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarish orqali ekologik loyihalarga uzoq muddatli moliyaviy manbalar jalb qilish zarur [1].
- Xususiy sektorni rag‘batlantirish – yashil kreditlar uchun foiz stavkalarini subsidiyalash va ekologik loyihalarni amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berish [2].
- Mijozlarning xabardorligini oshirish – yashil moliya bo‘yicha ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil moliya rivojlanishining dastlabki bosqichida bo‘lsa-da, uning o‘shish salohiyati yuqori. Hukumat tomonidan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqilayotgani va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning kuchayishi sohaning kelajakdagi istiqbollarini ochib bermoqda [9]. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, xususiy sektorning sust ishtiroki va huquqiy tartibga solish tizimining rivojlanmaganligi yashil moliyaning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda [8].

Yashil moliyani rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Qozog‘iston yashil kreditlash va obligatsiyalar bozorini rivojlantirishda ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, davlat tomonidan ekologik loyihalarni rag‘batlantirish uchun moliyaviy imtiyozlar taqdim etilmoqda [3]. Indoneziyada esa yashil moliyaviy tizimning rivojlanishiga soliq imtiyozlari va uzoq muddatli moliyaviy

¹ Muallif ishlanmasi-foydalanilgan adbiyotlardan yig‘ilgan ma`lumot va dalillar asosida

yordam dasturlari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [4]. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, yashil kreditlash va obligatsiyalar tizimini rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Yashil moliyaning O'zbekistonda ommalashmasligining asosiy sababi moliyaviy vositalarning cheklanganligi bilan bog'liq. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda uzoq muddatli yashil kreditlar va grantlarni jalb qilish ushbu muammoni bartaraf etishga yordam beradi.[2]. Bunga qo'shimcha ravishda, xususiy sektorni jalb qilish uchun yashil loyihalarni moliyalashtirayotgan kompaniyalarga soliq imtiyozlarini taqdim etish va ularni ekologik majburiyatlarini bajarishga rag'batlantirish choralarini ko'rish zarur [1].

Yashil moliya rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan yana bir omil bu mijozlarning yetarlicha xabardor emasligidir. Bank tizimi va moliyaviy institutlar tomonidan yashil moliyaviy xizmatlarning afzalliklari haqida keng tushuntirish ishlarini olib borish, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot kampaniyalari tashkil etish muhim [8]. Shuningdek, banklar tomonidan ekologik loyihalarga moliyaviy ko'mak berishni rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim [5].

Ushbu tadqiqot asosida O'zbekistonda yashil moliyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish – davlat tomonidan yashil obligatsiyalar chiqarish orqali ekologik loyihalarga uzoq muddatli moliyaviy manbalar jalb qilish zarur [1]. Xalqaro moliyaviy institutlar va investorlarni jalb qilish maqsadida Yevropa Ittifoqi va Qozog'iston tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.[3].

- Xususiy sektor faolligini oshirish – yashil kreditlar uchun foiz stavkalarini subsidiyalash orqali tadbirkorlarning yashil loyihalarga sarmoya kiritishiga rag'bat yaratish kerak [2]. Yashil loyihalarni moliyalashtirayotgan kompaniyalarga soliq imtiyozlarini taqdim etish va ularni ekologik majburiyatlarini bajarishga undash zarur [4].

- Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yashil moliya bo'yicha uzoq muddatli grantlar va kreditlarni jalb qilish lozim [6]. Xalqaro moliyaviy tizimlar bilan hamkorlik qilish orqali O'zbekistonda yashil iqtisodiyot uchun barqaror moliyalashtirish mexanizmlari shakllantiriladi.[2].

- Mijozlarning xabardorligini oshirish – yashil kreditlar, obligatsiyalar va ekologik investitsiyalar haqida ommaviy axborot vositalari, biznes-treninglar va davlat dasturlari orqali tushuntirish ishlarini olib borish kerak [8]. Yashil moliya bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini joriy qilish va universitetlar, banklar hamda xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim [5].

- Huquqiy baza va moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish – yashil moliyaga oid maxsus qonunlar va reglamentlarni ishlab chiqish va joriy qilish zarur [4]. Davlat tomonidan yashil kreditlar va obligatsiyalarni tartibga solish bo'yicha qonuniy asos yaratish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish lozim [1].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yashil moliyani rivojlantirishda katta salohiyatga ega, ammo tizimli yondashuv talab qilinadi. Xususiyl sektorini rag'batlantirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish va huquqiy bazani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil kreditlar va obligatsiyalarni keng joriy qilish orqali ekologik barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bayakhmetova, A., Bayakhmetova, L., Bayakhmetova, L., & Niyazbekova, S. (2024). Exploring green loans: Effects on household financial habits compared to conventional loans. *BIO Web of Conferences*, 141, 04029. <https://doi.org/10.1051/bioconf/202414104029>
2. Nassani, A. A., Imran, M., Khan, S., Zaman, K., & Khan, H. R. (2025). *Financial Integration and Economic Growth: Impact of Renewable Energy Investments, Technology Transfer, and Climate Change on Europe and Central Asian Economies*. Financial Innovation (Springer). <https://link.springer.com/article/10.1186/s40854-024-00733-0>
3. Shadrina, E. (2025). *Energy Transition Enhancement in Emerging Economies: EU's and Japan's Strategies for Central Asia*. Green and Low-Carbon Economy (Bonview Press). <https://ojs.bonviewpress.com/index.php/GLCE/article/view/3581>
4. Asyrof, R. A., & Rizaldi, M. (2025). *Regional Inclusive Green Growth in Indonesia*. Indonesian Journal of Energy. <https://ije-pyc.org/index.php/IJE/article/view/220>
5. Miroshnichenko, O. S., & Mostovaya, N. A. (2019). Finance: Theory and Practice. 23(2), 31-43. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2019-23-2-31-43>
6. Ozili, P. K. (2022). The impact of green finance on sustainable development. *International Journal of Green Economics*, 16(1), 56-75. <https://doi.org/10.1504/IJGE.2022.125554>
7. Parczewski, M., Gökengin, D., & Sullivan, A. (2025). *Control of HIV across the WHO European Region: Progress and Remaining Challenges*. The Lancet Regional Health – Europe. [https://www.thelancet.com/journals/lanep/article/PIIS2666-7762\(25\)00035-3/fulltext](https://www.thelancet.com/journals/lanep/article/PIIS2666-7762(25)00035-3/fulltext)
8. [Unnamed authors] (2024). Circular shifts: Insights into Kazakhstan's circular business ecosystem. [Source not specified in the document]
9. Ben Hassen, T., El Bilali, H., Daher, B., & Burkart, S. (2025). *Sustainable and Resilient Food Systems in Times of Crises*. Frontiers in Nutrition. <https://www.frontiersin.org/journals/nutrition/articles/10.3389/fnut.2025.1564950/full>

10. Zhaksybayeva, N., Serikkyzy, A., & Baktymbet, A. (2024). *Circular Shifts: Insights into Kazakhstan's Circular Business Ecosystem*. *Cogent Business & Management*. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/23311975.2024.2431652>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**